Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Haspelmath M. Lexical Borrowing: Concepts and Issues // Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook / ed. by M. Haspelmath, U. Tadmor. Berlin, New York, De Gruyter Mouton, 2009. p. 35–54.

(2). Fillmore C.J. Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982, p. 111–137.

(3). Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago, University of Chicago Press, 1987.

(4). Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. Oxford, Oxford University Press, 2010.

(5). Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. New York, Basic Books, 2002.

(6). Bauer L. English Word-Formation. Cambridge, Cambridge University Press, 1983.

(7). Plag I. Word-Formation in English. Cambridge, Cambridge University Press, 2003.

Nurmanov Furqat Ismoilovich (O‘zJOKU dotsenti, f.f.n.; nurmanovfurqat@gmail.com)

O‘ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGIGA YEVROPA FONETIK TALQINLARINING KIRIB KELISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yevropa fonetika va fonologiya maktablarida shakllangan nazariy-metodologik qarashlarning o‘zbek ilmiy tilshunosligiga kirib kelishi hamda milliy fonetik ta’limot taraqqiyotiga ta’siri tarixiy-qiyosiy va nazariy-tahliliy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. O‘zbek adabiy tili fonetikasiga oid ilmiy manbalarda nutq tovushlarining artikulyatsion va akustik xususiyatlarini tavsiflash, fonetika va fonologiyaning tadqiqot obyektlarini farqlash, fonemalarning farqlovchi belgilari hamda fonologik oppozitsiyalarni izohlash tamoyillari Yevropa tilshunosligi vakillarining ilmiy konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, XX–XXI asrlarda yaratilgan o‘zbek fonetikasiga oid tadqiqotlarda qo‘llanilgan nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlarning izchilligi, o‘ziga xos jihatlari hamda xalqaro fonetik-fonologik an’analar bilan munosabati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tilshunosligi, Yevropa fonetika maktablari, fonetika, fonologiya, artikulyatsion fonetika, akustik fonetika, fonema, fonologik oppozitsiya, metodologiya, o‘zbek adabiy tili.*

ПРОНИКНОВЕНИЕ ЕВРОПЕЙСКИХ ФОНЕТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В УЗБЕКСКОЕ НАУЧНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Аннотация. *В статье исследуется процесс проникновения теоретико-методологических концепций, сформировавшихся в европейских фонетических и фонологических школах, в узбекское научное языкознание, а также их влияние на развитие национального фонетического учения. На основе историко-сравнительного и теоретико-аналитического подходов сопоставляются принципы описания артикуляционных и акустических характеристик речевых звуков, разграничения предметных областей фонетики и фонологии, интерпретации дифференциальных признаков фонем и фонологических оппозиций, представленные в научной литературе по фонетике узбекского литературного языка, с теоретическими концепциями представителей европейского языкознания. Кроме того, анализируются преемственность и специфика теоретических положений и методологических подходов, применяемых в исследованиях узбекской фонетики XX–XXI веков, а также их соотношение с международными фонетико-фонологическими традициями.*

Ключевые слова: *узбекское языкознание, европейские фонетические школы, фонетика, фонология, артикуляционная фонетика, акустическая фонетика, фонема, фонологическая оппозиция, методология, узбекский литературный язык.*

THE INTRODUCTION OF EUROPEAN PHONETIC THEORIES INTO UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article examines the introduction of theoretical and methodological concepts developed within European phonetic and phonological schools into Uzbek linguistics and their influence on the development of the national phonetic tradition. Drawing on historical-comparative and theoretical-analytical approaches, the study compares the principles used to describe the articulatory and acoustic properties of speech sounds, distinguish the respective domains of phonetics and phonology, and interpret the distinctive features of phonemes and phonological oppositions in scholarly literature on the phonetics of standard Uzbek with the theoretical frameworks advanced by European linguists. Furthermore, the article analyses the continuity and distinctive characteristics of the theoretical principles and methodological approaches employed in studies of Uzbek phonetics in the twentieth and twenty-first centuries, as well as their relationship to international phonetic and phonological traditions.*

Keywords: *Uzbek linguistics, European phonetic schools, phonetics, phonology, articulatory phonetics, acoustic phonetics, phoneme, phonological opposition, methodology, standard Uzbek.*

Kirish. Tilshunoslikda fonetika bo‘limi dastlabki va markaziy bo‘limlardan biri sanaladi. Bu bo‘lim tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lish mexanizmi, fizik xususiyatlari va eshitilish jarayonini o‘rganuvchi sohasidir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Yevropa tilshunosligida tovushlarni tizimli tavsiflash, talaffuzni maxsus belgilar bilan qayd etish va nutq tovushlarini eksperimental tekshirishga qaratilgan tadqiqotlar rivojlandi. 1886-yilda Parijda Xalqaro fonetik uyushmaning tashkil etilishi hamda xalqaro fonetik alifboning shakllanishi mazkur jarayonning muhim bosqichlaridan hisoblanadi.

XIX asrda Yevropa tilshunosligida qiyosiy-tarixiy tadqiqotlarning rivojlanishi, nutq organlarini o‘rganishga qaratilgan fiziologik izlanishlar, tovushlarni yozib olish va o‘lchash vositalarining takomillashuvi fonetik bilimlarning nazariy hamda metodologik jihatdan yangilanishiga zamin yaratdi.

XVIII–XIX asrlarda Yevropa davlatlari turkiy xalqlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarni tiklash asnosida, Yevropa olimlari, jumladan, rus turkologlari turkiy tillarni o‘rganishni boshlaganlar. Turkiy tillarning fonetik, grammatik, leksik, etnolingvistik, diaxronik, sinxronik xususiyatlariga, geografik o‘rinlariga va taraqqiyot davrlariga ko‘ra turlicha klassifikatsiya qilganlar.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G‘arbiy Yevropa o‘zbek tili va madaniyati bilan XVII–XVIII asrlardan boshlab yaqindan tanisha boshladi va tilimiz G‘arbiy Yevropada chig‘atoy tili nomi bilan mashhur bo‘ldi. Yevropada bu nomning keng ommalashishida Herman Vamberining XIX asr o‘rtalarida mintaqada keng yoyilgan “Chig‘atoy tili darsligi”ning xizmati katta. Yevropada o‘zbek tili, bundan tashqari, (qoraxoniy), (sharqiy turk), (sharqiy turkcha), (sharqiy Turkiston tili), (islomiy-sharqiy turkiy), (chigiliy), (turkiy turoniy), (Navoiy turkiysi) va boshqa nomlar bilan ma’lum. Bu atamadan har birining o‘ziga xos ilmiy-tarixiy asosi bor.[2]

XIX asrning oxiriga kelib rus bosqinchilarining mahalliy xalq madaniyati, urf-odat va tilini o‘rganish ehtiyoji natijasida bir qancha amaliy ahamiyatga ega grammatikalar vujudga keldi. M.A.Terentevning “Turk, fors, qirg‘iz va o‘zbek tili grammatikasi” (1875)ni, A.Starlevskiyning “Rus kishisining O‘rta Osiyodagi yo‘ldoshi” (1878) asarini, Z.A.Alekseyev va V.Vishnegorskiyning “Sort tili samouchiteli” (1884), M.Andreyevning “Sort tilini birinchi bor o‘rganuvchilar uchun qo‘llanma”sini (1896), F.Mashkovsevning “Sort tili darslari”ni (1899), V.P.Nalivkinning “Sort tilini amaliy o‘rganish uchun qo‘llanma”sini (1898), N.Budzinskiyning “Sort tili darsligi”ni (1910) bunga misol sifatida ko‘rsatish mumkin.[3] Ko‘rinib turibdiki, rus harbiy tadqiqotchilari o‘zbek tilini o‘rganish uchun ilk qo‘llanmalarda o‘zbek tili o‘rnida sort tili atamasini qo‘llashgan.

Ijtimoiy hayotda siyosiy voqelikning o‘zgarishi natijasida milliy tilshunosligimiz ham yo‘nalishini o‘zgartirdi. Buning asosida rus istilochilarining mahalliy xalqlar tili, urf-odati, madaniyatini o‘rganish hamda o‘zlarining madaniyatini mahalliy xalq hayotiga singdirish talabi yotardi. Shuning uchun ham o‘sha davrda yaratilgan darslik, qo‘llanma, umuman, lingvistik tadqiqotlar, asosan, rus tilshunosligi an’analari va tamoyillari asosida amalga oshirildi. Tilshunos olim, professor B.Mengliyev ta’biri bilan aytganda, bu davr tadqiqotlari g‘ayriilmiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan “buyurtma”ni amalga oshirishga xizmat qildi.

Turkiy (o‘zbek) adabiy tilining asoschisi A.Navoiy bu tilning fonetik tizimi, lug‘at tarkibi, grammatiik qurilishi yuzasidan mukammal ilmiy meros yozib qoldirgan bo‘lsa-da, milliy til sathlarini o‘rganishda hozirgi davrga qadar ayrim qonuniyatlar asosini Yevpropa tilshunosligiga bog‘lashadi.

O‘tgan yuz yillik boshlarida H.H.Niyoziy (“Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi”, “O‘qish kitobi”), Abdulla Avloniy (“Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot va milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Gulistoni maktab”) tomonidan nashrga tayyorlangan darsliklar birinchi marta tovush usuli asosida tuzilib, o‘zbek adabiy tilidan boshlang‘ich ma’lumot berishga mo‘ljallangan.

---

[1] Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков, Петербург, 1922; Малов С.Е. Древние и новые тюркские языки. Известия АН СССР, ОЛЯ, т. XI, вып. 2. М., 1952, с.135–144; Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков, ИАН. ОЛЯ, т. XI, вып. 2. М., 1952; Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов XI–XIII в.в. из Восточного Туркестана. М.–Л., 1961, стр. 10–26; Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, Тошкент, 1973, 10–17-бетлар.

[2] Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2009, 12-бет.

[3] Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қарши, 2004, 16-бет.

Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning "O'zbek tili saboqligi" va Abdurauf Fitratning "O'zbek tili qoidasi" to'g'risida bir tajriba: "Sarf" darsligi o'zbek tili fonetikasining yaxlit, izchil tahlil va talqiniga tamal toshi qo'yilishiga sabab bo'ldi. Qayum Ramazon "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasida unlilarning fonologik tavsifiga nazariy jihatdan yondashish asosida unlilarning tor va kenglik xususiyatlari so'z ma'nosiga ta'sir etishiga misollar keltirib, "fonema" terminini qo'llaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yevropa tilshunosligida fonetikaning ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishi bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sirida yuz berdi. Ulardan biri qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning taraqqiyoti bo'lsa, ikkinchisi nutq tovushlarini fiziologik va fizik jihatdan tekshirish imkoniyatlarining kengayishi edi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik turdosh tillardagi tovush mosliklarini aniqlash, tovush o'zgarishlarining muntazamligini belgilash va til tarixini tiklashga xizmat qildi. Eksperimental-fiziologik tadqiqotlar esa tovushning qanday hosil bo'lishi, nutq organlarining qanday harakatlanishi va havo oqimining qanday o'zgarishini o'rganishga imkon berdi.

Yevropa tilshunosligida fonetik tadqiqotlarning rivojlanishi tovushning fizik va fiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda uning til tizimidagi vazifasini ham alohida o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada fonetika va fonologiya o'rtasidagi nazariy farqlanish mustahkamlandi.

Fonema nazariyasining shakllanishida Boduen de Kurtene va Nikolay Krushevskiy singari olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi. Keyinchalik, Praga lingvistik maktabi vakillari, jumladan, Nikolay Trubetskoy va Roman Yakobson fonologik oppozitsiyalar, farqlovchi belgilar va fonemalarning tizimdagi munosabatlarini chuqur ishlab chiqdilar. Bu nazariyalarga ko'ra, nutq tovushi konkret talaffuz hodisasi sifatida, fonema esa til tizimida ma'noni farqlashga xizmat qiladigan birlik sifatida o'rganiladi. Demak, fonetika tovushning artikulyatsion, akustik va perseptiv tomonlarini tekshirsa, fonologiya tovush birliklarining til tizimidagi funksional munosabatlarini tahlil qiladi.

Tahlil va natijalar. XX asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy siyosiy voqelik darsliklarda yozilganidek, teng huquqlilik, hurlik emas, o'zbek xalqi uchun boshqa turkiy xalqlar kabi o'z tarixi, madaniyati, milliyligidan mahrum bo'lishiga, istilochilarning o'z siyosatini keng targ'ib etishga imkon yaratdi. Qisqa davrda o'zbek imlosi ikki marta o'zgartirildi. Bu esa turkiy xalqlarni bir-biridan va o'tmishdan, an'anaga ega bo'lgan merosidan mahrum bo'lishiga olib keldi.

O'zbek tilshunosligida fonetik qarashlarning shakllanishini faqat Yevropa ilmiy maktablarining ta'limotlari ta'siri bilan izohlash maslalaga biryoqlama yondashuv bo'ladi. O'zbek tili va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq nutq tovushlar tasnifi, fonetik hodisalar, nutq tovushlarining fonematik xususiaytlari buyuk Sharq allomalarining asarlaridagi ilmiy xulosalar bilan ham aloqador.

Sharq tilshunosligida tovushlarning talaffuz o'rni, nutq organlarining ishtiroki, tovushlarni farqlash va to'g'ri talaffuz qilish masalalari turli ilmiy-amaliy yo'nalishlarda o'rganilgan. Arab tilshunosligidagi *maxraj* tushunchasi tovushning hosil bo'lish o'rnini, *sifat* tushunchasi esa uning muayyan fonetik xususiyatlarini tavsiflashda qo'llangan. Bu tushunchalar zamonaviy artikulyatsion fonetika bilan aynan muvofiq bo'lmasa-da, biroq ular nutq tovushlarini tizimli kuzatish va tasniflash an'anasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbek tili yozuv tizimi rus grafikasiga o'tgunga qadar boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili imlo qurilishiga moslanib o'zlashtirilgan. Rus alifbosiga o'tilgach, rus tili va bu til orqali o'zbek tilga o'zlashgan so'zlar o'z tilda qanday yozilsa, shundayligicha o'zlashtirish qonunlashtirildi. Bu esa bir tilda ikki imloli yozuv paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada savod chiqarish yanada murakkablashdi.

Avval, o'zbek tiliga fors, arab tillaridan so'z o'zlashib, talaffuz va imloda qiyinchiliklar keltirib chiqargan bo'lsa, keyinroq, bu holat rus tili va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda yuzaga keldi.

O'zbek tilshunosligida fonetika, dastlab, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonov hamkorligida yaratilgan darslikda,[1] so'ngra A.N.Kononovning hozirgi o'zbek adabiy tiliga bag'ishlangan ishida[2] berilgan. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek tilining tovush tizimini tavsiflashda unli va undoshlarni tasniflash, fonemalar tizimini aniqlash, bo'g'in va urg'u xususiyatlarini o'rganish, tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlarini izohlash kabi masalalar izchil ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. Natijada milliy tilga oid nazariy tushunchlar o'zbek ilmiy adabiyotida rus tilshunosligining terminologik va metodologik vositalari orqali ifodalandi. Bu holat o'zbek tili adabiy talaffuzi, imlo qoidalari va grammatik qurilishining o'zga til nazariyasi ta'siriga tushib qolishiga olib keldi.

---

[1] Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш., Фонетика. Тошкент, "Фан", 1953.

[2] Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.–Л., "Наука", 1960, с. 13–56.

O‘zbek tili fonetikasini yaratgan mualliflar rus millatiga mansubligi sabab, rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlar o‘zbek tiliga ham tatbiq etib yuborilgan. Bu fonetikani tavsif etgan o‘zbek tilshunoslariga ham ko‘chgan. Bu, ayniqsa, so‘z urg‘usini dinamik, deb qayd etilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Vaholanki, o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi kvantitativdir. O‘zbek tili fonetikasi tavsifi berilgan adabiyotlar ham yuqoridagilardan farq qilmaydi.[1] Bu ilmiy adabiyotlardagi nutq tovushlari talaffuz o‘rni, hosil bo‘lish usuli, ovoz va shovqinning ishtiroki, yumshoq tanglayning holati hamda boshqa artikulatsion belgilar asosida tavsiflanishi, tovushlar akustikasi, fonemalarning oppozitsiya va farqlovchi belgilari, urg‘u, bo‘g‘in va prosodik hodisalar tavsifi Ovropa fonetika maktablarida shakllangan artikulatsion tavsif tamoyillari bilan metodologik jihatdan mushtarakdir.

Yevropa fonetik va fonologik talqinlarining o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi milliy tilning tovush tizimini zamonaviy nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatdii. Natijada fonema nazariyasi, fonologik oppozitsiya, artikulatsion fonetika va eksperimental fonetika o‘zbek tilshunosligining muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari sifatida rivojlandi. A.Nurmonovning “O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi” (1990), A.Abduazizovning shu nomdagi asari (1992), H.Jamolxonovning “O‘zbek tilining nazariy fonetikasi” (2009) hamda M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili fonetikasi” (2013) kabi tadqiqotlarda o‘zbek tilining fonetik-fonologik tizimini nazariy jihatdan asoslash va milliy til materiallari asosida tahlil qilishga asoslangan.

O‘zbek tilini boshqa turkiy tillardan ajratib tashlash va buning uchun turkiy tillarning umumiy jihatlari ko‘rsatilmasdan farqli jihatlariga urg‘u berilgan o‘sha davrda Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V. Reshetov kabi sharqshunos rus olimlari ilmiy fikrlari ta’sirida A.G‘ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, F. Kamolov, A.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Abduazizov, S.Otamirzayeva, Sh.Rahmatullayev singari olimlar ilmiy qarashlarida o‘zbek tilida singormonizmning amal qilmasligi uqdiriladi. O‘zbek tilshunoslari: Q.Sodiqov, N.Rahmonov, E.Umarov, R.Sayfullayeva, M.Mirtojiyev, B.Mengliyevlar o‘zbek tilida bu jarayon hamon qonuniyat sifatida bo‘lmasa-da, tarixiy davomiylik sifatida yashab kelayotganligini ta’kidlashadi.

Professor M.Mirtojiyevning 2013-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili fonetika” kitobida olim o‘zbek tili fonetik tizini eksperemental tahlil asosida tadqiq etib, hozirgi kunga qadar o‘zbek tilshunosligida yaratilgan milliy til qurilish tizimi tarkibi tahliliga oid ilmiy tadqiqotlardagi ayrim nazariy xulosalarga o‘z munosabatini bayon qilgan: “O‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini o‘zbek yoki turkiy tillar tilshunoslari o‘rganar ekan, rus tilidagi bor qarashlarini unga tatbiq etib yuboraverishgan. Rus tilidagi so‘z urg‘usi bug‘undagi unlining akustik intensivligiga bog‘li ekanligi uchun, u dinamik urg‘u deb qaralgan. O‘zbek tili fonetikasi bilan, dastlab, ruslar shug‘ullanishgan. Shuning uchun ular shunga qiyosan o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini ham dinamik urg‘u deb yuborgan”.[2] Undan keyin so‘z urg‘usi haqida fikr yuritgan o‘zbek tilshunoslari ham ularga ergashishgan.

Xulosa va takliflar. Har bir til o‘z tarixiy taraqqiyotiga, o‘ziga xos ichki lingvistik qonuniyatlariga ega. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’siri asosida til ichki va tashqi qonuniyatlarining o‘zgarishi fan oldiga yangi-yangi muammolarni qo‘yadi. Bu tabiiy hodisa bo‘lib, har bir fanning jamiyat taraqqiyotida muhim rolini belgilaydi. Bu vazifani bajarishda milliylikning ifodasi bo‘lgan ona tili fani lingvistik qoidalarni o‘rgatishga emas, o‘quvchida milliy tafakkur va dunyoqarashni, mustaqil mantiqiy, ijodiy tafakkurni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

O‘zbek ilmiy tilshunosligiga Yevropa fonetik talqinlarining kirib kelishi tilshunoslik tarixidagi muhim metodologik jarayon sanaladi. Bu talqinlarning o‘zbek ilmiy tilshunosligiga kirib kelishi milliy tilshunoslikning tayyor nazariyalarni qabul qilishidan ko‘ra, tovush hodisalarini o‘rganishning ilmiy mezonlari, tadqiqot metodlari va nazariy tushunchalarining bosqichma-bosqich takomillashuvi sifatida baholanishi kerak. Ushbu tarixiy tajribani xolis va manbalar asosida o‘rganish o‘zbek fonetikasining ilmiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashtirish, zamonaviy tadqiqotlar metodologiyasini mustahkamlash va milliy tilning tovush tizimini xalqaro miqyosda asosli tavsiflashga xizmat qiladi.

---

[1] Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 3-нашр. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1970, 55–78-бетлар; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. 2-нашр, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1975, 78–96-бетлар; Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980; Жамолхонов Ҳ. Узбек тилининг назарий фонетикаси. Тошкент, “Фан”, 2009.

[2] Боровков А.К., Ғуломов А.Ғ., Маъруфов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Фонетика ва морфология. Тошкент, Ўздавнашр, 1940, 23-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков. Петербург, 1922; Малов С.Е. Древние и новые тюркские языки. Известия АН СССР, ОЛЯ, т. XI, вып. 2. М., 1952; Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков. ИАН. ОЛЯ, т. XI, вып. (2). М., 1952; Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов XI–XIII в.в. из Восточного Туркестана. М.–Л., 1961, с. 10–26; Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент, 1973.

(3). Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма, Тошкент, 2009.

(4). Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қарши, 2004.

(5). Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш., Фонетика. Тошкент, “Фан”, 1953.

(6). Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.–Л, “Наука”, 1960.

(7). Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. 3-нашр. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1970, 55–78-бетлар; Турсунов У, Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология. 2-нашр. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1975, 78–96-бетлар; Ҳозирги узбек адабий тили. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980; Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Тошкент, “Фан”, 2009.

(8). Боровков А.К., Ғуломов А.Ғ., Маъруфов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм, Фонетика ва морфология. Тошкент, Ўздавнашр, 1940.

Zulfiqorova Zuxra Allaberdiyevna (Qarshi davlat Texnika universiteti katta o‘qituvchisi; zuhrazulfikorova5@gmail.com)

INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA BADIIY MATNLARDA PRAGMATIK EKVIVALENTLIKNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada Ernest Hemingway asarlarining inglizcha original va o‘zbekcha tarjima matnlarida pragmatik ekvivalentlikning lingvistik xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tadqiq etiladi. Pragmatik ekvivalentlikning shakllanishida leksik, sintaktik, kontekstual va diskursiv vositalarning o‘rni aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *pragmatik ekvivalentlik, badiiy tarjima, qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil, kommunikativ niyat, nutqiy akt, implikatura, dialogik nutq, pragmatik transformatsiya.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В статье в сопоставительно-сравнительном аспекте исследуются лингвистические особенности прагматической эквивалентности в английских оригиналах и узбекских переводах произведений Эрнеста Хемингуэя. Определяется роль лексических, синтаксических, контекстуальных и дискурсивных средств в формировании прагматической эквивалентности.*

Ключевые слова: *прагматическая эквивалентность, художественный перевод, сопоставительный анализ, коммуникативное намерение, речевой акт, импликатура, диалогическая речь, прагматическая трансформация.*

LINGUISTIC FEATURES OF PRAGMATIC EQUIVALENCE IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS

Annotation. *This article examines the linguistic features of pragmatic equivalence in the English originals and Uzbek translations of Ernest Hemingway’s works from a comparative perspective. It identifies the role of lexical, syntactic, contextual, and discourse-level devices in establishing pragmatic equivalence.*

Keywords: *pragmatic equivalence, literary translation, comparative analysis, communicative intention, speech act, implicature, dialogic speech, pragmatic transformation.*

Kirish. Badiiy tarjima jarayonida original matnning mazmunini boshqa tilda qayta yaratish masalasi faqat leksik va grammatik muvofiqlik bilan chegaralanmaydi. Badiiy matnning to‘laqonli mazmuni uning kommunikativ vazifasi, so‘zlovchi niyati, adresatga yo‘naltirilgan ta’siri, nutqiy vaziyat, kontekst, emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlikning pragmatik jihatini o‘rganish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Pragmatik ekvivalentlikni faqat original va tarjima birliklarining “bir xil ma’noga ega bo‘lishi” sifatida talqin qilish yetarli emas. Chunki bitta lisoniy birlik o‘zining lug‘aviy ma’nosidan tashqari konkret nutqiy vaziyatda muayyan kommunikativ vazifani bajarishi mumkin. Tarjima jarayonida esa ushbu vazifa boshqa grammatik, leksik yoki diskursiv vosita orqali ifodalanishi ehtimoli mavjud. Demak, pragmatik ekvivalentlikning asosiy mezoni shakliy aynanlik emas, balki kommunikativ-pragmatik funksiyaning qayta yaratilishidir. Mazkur muammo Ernest Hemingway ijodini o‘rganishda ayniqsa dolzarbdir. Yozuvchining